

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 4

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 4

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ushenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Dilafruz Satimova

O'zbek adabiyotida substandart leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi va ularning ingliz tiliga tarjimasi.....6

Umida Mahmudova

Raqamli texnologiyalar diskursi tarjimasida sun'iy intellekt ChatGPT va Google Translate tarjimon dasturlarining farqi.....23

Zilola Tillabayeva

Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....37

Adabiyotshunoslik

Orzigul Hamroyeva

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining tarkibiy tuzilishi.....49

Alimuhtor Muhtorov

Nizomiy Ganjaviy siymosining milliy o'zlikni anglashdagi roli.....63

Vəzufə Xudiyeva

Azərbaycanda mövcud bibliografik ehtiyatlar sisteminin inkişafı.....76

Kishin Xajiboyev

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani syujetida inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi.....87

Tarix. Manbashunoslik

Kemal Yavuz Ataman

Ikki yetakchi sahoba: Qusam bin Abbos va Abu Ayyub al-Ansoriy va ikki muhim shahar: Samarqand va Istanbul.....101

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

Diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifi.....120

CONTENT

Linguistics

Dilafruz Satimova

Linguoculturological Study of Substandard Lexical units in
Uzbek Literature and their Translation into English.....6

Umida Mahmudova

The Difference Between Artificial Intelligence ChatGPT and Google
Translate in the Discourse of Digital Technologies Translation.....23

Zilola Tillabaeva

Types of Lexemes in the Karluk Dialects of Samarkand Region
According to their form and meaning.....37

Literature

Orzigul Hamroeva

The Structure of Abdurahmon Sa'di's Textbook "Practical and
Theoretical Literature Lessons"49

Alimukhtor Mukhtarov

The Role of Nizami Ganjavi's Image in Understanding National
Identity.....63

Vazufa Khudieva

Development of the Existing Bibliographic Resources System in
Azerbaijan.....76

Kishin Khajiboev

The Expression of the Concept of man and nature in the plot of the
novel "The shore that lost its river"87

History. Source studies

Kemal Yavuz Ataman

Two Pioneer Companions, Two Important Cities in the Conquest
Qutham ibn Abbas & Abu Ayyub al-Ansari, Samarkand & Istanbul.....101

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

A Historical and Socio-Cultural Description of the System of
Religious Symbols.....120

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining tarkibiy tuzilishi

Orzigul Hamroyeva¹

Abstrakt

Adabiyotning yangilanishi, rivojlanishi, taraqqiy etishi adabiy qonuniyatlar, nazariyalarning shakllanishiga asos bo'ladi. XX asr boshlari har jihatdan adabiy ta'sirni boshdan kechirdi: badiiy adabiyot, adabiy tur va janrlar, ularning poetik xususiyatlari yangilandi, shu asosdan adabiyot nazariyasida ularning nazariy qoidalarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Mumtoz an'analar: aruz, badiiyat, qofiyaga oid poetik tahlil barmoq, oq she'r, sochma, mansura kabi yangi vaznlar imkoniyatiga qarab o'zgara bordi. An'anaviy mavzular, obrazlar va ularga yuklangan vazifalar ham keskin o'zgardi. Adabiyot har davrda ijtimoiy hodisa sanalib kelgan. Unda ijodkor tuyg'ulari jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy vaziyatga qarab akslanadi. Shu sabab ham ijodkor asarlarining mohiyati va obrazlar tizimi asosida davr adabiy muhitini belgilash tamoyili bugungi kunga qadar o'zini oqlab kelyapti.

Maqolada darslikning tarkibiy tuzilishi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *majmua, darslik, adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, she'r, nasr, drama.*

Kirish

XX asr boshlari adabiy hayoti bir qancha adabiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi: adabiyotga Sharqdan ko'ra G'arbning ta'siri oshdi, adabiy tur va janrlar o'zgardi, yangilandi, aruz vazni o'rniga barmoq, sochmalar kirib keldi, obrazlar va shoirning ifoda uslubi yangilandi, she'rga munosabat o'zgardi. Shu natija o'laroq yangi adabiy muhit shakllandi va bu muhit, undagi adabiy asarlar qonuniyatini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligi ana shu ehtiyoj

¹Hamroyeva Orzigul Jalolovna – filologiya fanlari doktori, professor v. b., Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.



E-pochta: hamroyeva@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-3904-9712

Iqtibos uchun: Hamroyeva, O. J. 2024. "Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining tarkibiy tuzilishi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 49 – 62.

natijasi sifatida dunyoga keldi. Darslik o'z davri uchun adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan mukammal manba sifatida o'zbek adabiyotshunosligida muhim ahamiyatga ega.

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" asari XX asr boshlarida yaratilgan adabiyot nazariyasiga oid ilk manbalardan biri bo'lib, muallif ushbu asarini yaratgunga qadar ayni yo'nalishda bir qancha qo'llanma va kichik hajmdagi darsliklarni yaratgan edi. Darslik 1924-yilda nashr etilgan bo'lib, uning buyurtma asosidagi ikkinchi nashri 1925-yilda amalga oshirilgan. Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" asari muallifning izohi va imzosi bilan davlat kutubxonasiga taqdim qilingan.



Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining o'ziga xos jihatlari

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Olimning adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid borasidagi fikrlari shunchaki fikrlar emas, yillar davomida o'rganilgan, tadqiq etilgan tadqiqotlarning xulosaviy qismidir. Olimning adabiy tahlil borasidagi 20 dan ortiq, adabiyot tarixiga oid 30 dan ortiq, adabiyot nazariyasiga oid 30 dan ortiq, adabiy tanqid borasidagi 30 ga yaqin, pedagogika oid 30 ga yaqin, tilshunoslikka oid 10 dan ortiq asarlari va maqolalari, ulardagi ilmiy-nazariy xulosalar darslikka asos bo'lganligi bu asar qiymatini ko'rsatib turibdi.

2. Olim darslikdagi ma'lumotlarni taqdim etishda adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqidga oid 30 dan ortiq darslik, ensiklopediya, ma'ruzalar to'plami, lug'atlardan foydalangan:

- A. Шалыгин. "Теория словесности" (1909);
- А. А. Потебня. "Теоритическая поэтика";
- А. Н. Веселовский. "Историческая поэтика" (1989);
- В. М. Фриче. "Новейшая европейская литература" (1900-1914);
- Б.А.Лезин. "Вопросы теории и психологии творчества" (1907);
- Бухорин. "Тарихий материализм назарияси";
- "Вопросы теории и психологии творчества";
- "Ю. И. Айхенволд. Силуеты русских писателей (1908)";
- "Литературная энциклопедия", "Отражения личности" (1909) kabi asarlardan Roman Osipovich Yakobson, Anatoliy Lunacharskiy, Vasiliy Adreevich Jukovskiy, Vissarion Grigorevich Bilinskiy, Platon Mixailovich Milioranskiy, Aleksandr Nikoloyevich Samoylovich kabi G'arb olimlarining ilmiy-tanqidiy maqolalari va ilmiy-tarixiy asarlaridan; Mahmud Fuod Kupruluzoda, Shihob Sulaymon, Sulaymon Nazif kabi turk, tatar olimlarining darslik, qo'llanmalaridan, Najim Osimbek ma'ruzalaridan, o'z davrining matbuot nashrlari: "Inqilob", "Bilim o'chog'i" kabi jurnallar materiallaridan.

3. Darslikda qiyos uslubidan unumli foydalanilgan: o'zbek, qozoq, tatar adabiyoti va mumtoz adabiyot: chig'atoy adabiyotidagi ijod mahsullari bilan birgalikda G'arb adabiyoti: rus, fransuz, ingliz, nemis adabiyotidagi badiiy asar namunalari tadqiqqa tortilgan. Bu orqali ma'lum nazariy qonuniyatlar va ulardagi o'ziga xoslik makon va zamon miqyosida o'rganilgan. Olimning bu uslubi o'zi ta'kidlaganidek, darslikni keng doirada o'rganish va foydalalanish imkoniyatini oshiradi.

4. Olim mumtoz adabiyot namunalaridan ko'ra XX asr boshlarida ijod qilgan shoirlar ijodiga ko'p murojaat qilgan. Olimning o'zi e'tirof etganidek, bundan maqsad - o'z davri adabiyoti va adabiy jarayonini tanitish, bu xususda kengroq ma'lumot berish.

5. A. Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligi shunchaki ilmiy-nazariy qoidalardan iborat bo'lmay, darslik tuzish maqsadidan kelib chiqqan holda uning amaliy natijasining tatbig'i aks etgan manba sifatida e'tiborga molik. Olim darslikda "Ish" sarlavhasi ostida o'quvchiga nazariy ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq qilish imkonini beruvchi topshiriqlar beradi.

6. Darslik o'ziga xos tushuntirish prinsipi asosida tuzilgan: uzundan uzun nazariy qoidalar emas, nazariy qonuniyatlarning izohi va sharhiga keng o'rin ajratilgan. Adabiy jarayonda faol bo'lgan 100 dan ortiq asarlardan saralab, namunalar keltirilganki, bu esa olimning o'z davrining sinchi munaqqidi ekanligidan dalolat beradi.

7. Abdurahmon Sa'diy darslikdagi adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqidga oid ilmiy-nazariy qarashlarni mavjud manbalardan aynan keltirmaydi, ular bilan bahsga kirishadi, izohtalab o'rinlarni izohlaydi, yangi nazariy qonuniyatlarni, qarashlarni taqdim qiladi. Bu borada olimning omma adabiyotiga oid nazariy qoidalar haqidagi mulohazalari, vazn imkoniyatlarini tushuntirishdagi yangicha yondashuv: ritta-ta uslubi e'tiborga molik. Keyinchalik Fitrat "Adabiyot qoidalari" asarida aruz vazni imkoniyatlarining "childirma" uslubida ochib bergan edi [Фитрат, 54].

Darslikning tarkibiy tuzilishi

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligi yetti bobdan iborat bo'lib, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqidga oid ilmiy-nazariy ma'lumotlar tizimli ravishda berilgan.

Birinchi bob til istilohi, uning ma'naviy ko'lami izohiga bag'ishlangan bo'lib, tilning badiiy adabiyotdagi o'rni, ruhiyat ifodasidagi yuki, turli xalqlarning til xususiyatlari kabi masalalarga bag'ishlangan. Til taraqqiyoti, komillashishi inson ongining taraqqiyoti bilan, tildagi o'zgarishlar esa o'sha tilda so'zlashuvchi millatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy rivojlanishi yoki aksincha, tanazzulga yuz tutishi bilan bog'lanadi.

Ikkinchi bob "Tilda so'zlarning qo'llanishi ham uslub masalalari" deb nomlanib, tilda so'zlarning qo'llanish imkoniyati, tildagi so'zlarning uslubga ta'siri, so'zlardagi mohiyatning ko'chishi, ko'chim, istiora va kinoyaning o'ziga xos xususiyatlari, matndagi so'zlarning ko'chishi kabi masalalar xususida to'xtalinib, o'xshatishlarning yozma va xalq og'zaki ijodidagi o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy o'rganiladi. Olim fikrni anglatishning ikki yo'lini farqlaydi: to'g'ri anglatish va suratli anglatish, ya'ni majoz vositasida. Suratli anglatishning 12 yo'li taqdim qilinadi: so'zlarning tub ma'nolaridan ko'chishlari, o'xshatish, sifatlash, turtma (ta'riz – kesatish), jonlantirish, mubolag'a, qarshilantirish, takror, savol berish, nido, kesish, bilib-bilmaslikka olish. Shunisi ahamiyatliki,

Abdurahmon Sa'diy tilning ma'no ko'chish turlarini mohiyatidan kelib chiqqan holda ikkiga ajratadi: o'xshashli ko'chim va o'xshashsiz ko'chim. O'xshashsiz ko'chimga metanomiya va sinekdoxa ma'no ko'chish turlari, o'xshashlik ko'chimga esa metaforani kiritadi. Chindan-da metanomiya va sinekdoxa aloqadorlik hamda butun va qism munosabati asosida, metafora esa o'xshatish asosida ko'chadi. Olim o'xshashlik ko'chimni mayda bo'laklarga bo'lgan holda 14 qism asosida o'rganadi, namunalar keltiradi. "1. Butun o'rniga bo'lak (parcha) yoki bo'lak o'rniga butun aytilur "*Bosh sog' bo'lsa, mol topilur*", "*Itki qo'l qilg'an ishni bir qo'l qila olmas*" deganda butun o'rniga bo'lak aytilgandir. *Bosh, qo'l* so'zlari kabi.

2. Ko'b o'rniga aytilur: *shogird turmushi, maktab masalasi, o'zbek adabiyoti "Ko'zimda erta va kech bir yig'in xayol ochilur" (Cho'lpon) dushman qochdi* kabi".

Darslikda o'xshashlik asosida ma'no ko'chadigan holat istiora va ko'chimga asos bo'lishi va bu ikki turli hodisotning o'xshash va farqli xususiyatlari badiiy parchalar asosida izohlanadi. Bu ikki hodisaning ishtiroki adabiy tur tanlamasligi Cho'lpon, Elbek, Bot-u, Shokir Sulaymon kabi davrdosh va Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Boyqaro, Muhammad Solih, Abdulla Avloniy kabi mumtoz shoirlar lirik parchalari bilan bir qatorda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Fitratning "Chin sevish" kabi asarlari misolida isbotlanadi.

Ko'ngil bog'i sabz ekan-da, bilmay yurdim.

Umrin guli xazon bo'ldi, emdi tuydim [Sa'diy, 32], baytidagi "*ko'ngil bog'i*", "*umrim guli*" kabi go'zal istioralar,

Ko'z yoshlarim oyog'ingga to'karman, misrasidagi o'ziga xos qism orqali butunga asoslanilgan ma'no ko'chishi olim tomonidan sinchkovlik va badiiy tafakkur bilan tanlangan adabiy parchalardandir. Abdurahmon Sa'diy ana shunday 100 dan ortiq badiiy parchalarni keltirar ekan, ulardagi ma'no ko'chimlarini topishni o'quvchiga havola qiladi. Bilamizki, tashbeh va istiora bir-biriga o'xshaydi. Ular o'rtasida nozik farqlanish bor: Abdurahmon Sa'diy mana shu farqni so'zning ingichkalashishi, noziklashishi, iqtisod qilinishida ko'radi va istioraga o'xshatishdan yuqori martaba beradi, o'xshatishdan ko'ra inson xayolotiga ortiqroq zavq berishini ta'kidlaydi. Olim o'xshatish yo'llari xususida to'xtalganda, moddiy narsaning moddiy narsaga o'xshatilishi, moddiy narsaning ma'naviy narsaga o'xshatilishi, ma'naviy narsaning moddiy narsaga o'xshatilishi kabi turlariga namunalar keltiradi. "*Yog'di o'q boshlarig'a yog'murdek (M. Solih)*" misrasida "o'q"ning "yomg'ir"ga

o'xshatilishi moddiy narsaning moddiy narsaga o'xshatilishiga, Cho'lponning mashhur *"Ko'nglim kabi yiqiq uylar, qishloqlar"* misrasidagi *"uylar"*ning *"ko'ngil"*ga o'xshatilishi moddiy narsaning ma'naviy narsaga o'xshatilishiga, *"Mening senga bo'lg'on muhabbatim mana bu dengiz kabi chuqur"* jumlasidagi *"muhabbat"*ning *"dengiz"*ga o'xshatilishi ma'naviy narsaning moddiy narsaga o'xshatilishiga namuna sifatida sodda va aniq tushuntirib berilgan. Darslikdagi sifatlash, ta'riz, jonlantirish, mubolag'a, qarshilantirish, takror, nido kabi badiiy tasvir vositalari ham shu shaklda batafsil izohlangan [Fitrat, 54].

"Amaliy ham nazariy adabiyot darslari"da "Tahrir uchun ma'lumot" sarlavhasi ostida mavzu haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Ma'lum bir mavzu doirasida ijodiy ish yozish va tahrir ko'nikmasi, bir mavzuni tarkiban bo'lish usuli o'rgatiladi. Masalan, olim *"Yozg'i kech shaharda"* degan mavzusini tanlaydi, uni plan moddasi, ya'ni mavzu, mundarija va guruhlariga ajratib, ularni jamlab, yirik qismlarning ajratilmasini tuzadi:

- 1) *quyosh botish oldida*;
- 2) *quyosh botgach*;
- 3) *kishilarda kechki harakat*;
- 4) *bog'cha tomoshasiga borib qaytish* [Sa'diy, 44].

Bu to'rt yirik plan o'z ichida bir qancha kichik bo'laklarga bo'linadi. Abdurahmon Sa'diy *"Quyosh botish oldida"* qismni a) ufqda ko'rinish; b) quyosh yog'dularining narsalarga tushgan ranglari; s) podalarning qaytishi kabi; *"Quyosh botgach"* qismi uchun esa a) yer usti ham ko'k; b) oy ham yulduzlar; c) elektrik yog'dusi; d) kechki yumshoq yel; ye) jilg'a yoki ariqlarning oqishi kabi; *"Kishilarda kechki harakat"* qismi uchun; a) xalqning turli keyimlarda go'zallanib bog'chalarga, tomoshalarga, istirohat joylariga oqilishlari; b) ko'chalarning chetlarida yayov yurguvchilar harakati; s) aftomobil, tramvay ham arobalarda bir unday, biri bunday qizg'in o'tib ketishlari; *"Bog'cha tomoshasiga borib qaytish"* sarlavhali qismga a) boqchaga – tomoshaga ketishing; b) bog'chada ko'rinish, xalq harakati; c) musiqa va uning senga ta'siri; d) boqchadan qaytishing; e) qanday taassurot va qanday xayollar ostida uyquga ketishing kabi kichik qismlarga ajratishni tavsiya qiladi.

Abdurahmon Sa'diy darslikda uslub masalasiga batafsil to'xtaladi. Dastlab tilning boyish imkoniyatlari xususida ma'lumot beradi. Har bir ijodkor o'z uslubiga ega ekanligini ta'kidlagan olim "Yassaviy, Navoiy va Muhammad Solih kabi chig'atoy shoirlari, Bobir va Abulg'oziy kabi muharrirlar o'zlariga ayrim mustaqil uslubga

ega bo'lg'u(y)chi odamlar" ekanligini bayon qiladi. Tabiiyki, davr uslubini ham shoirlar belgilab beradi. Adabiy ta'sir natijasi o'laroq bir davrda yashab, ijod etgan shoirlar ijodi, asar kompozitsiyasi, syujet chizig'i, obrazlar tizimi o'xshash bo'ladi. Demakki, davr uslubi ijodkor uslubining yig'indisi sifatida adabiy muhitni shakllantiradi. Abdurahmon Sa'diy aytganidek, mumtoz shoir va zamonaviy shoirlar uslubi ular yashagan adabiy muhitining mevasidir [Sa'diy, 49].

Tabiiyki, nasr, nazm va dramaturgiya uslubi bir-biridan tubdan farqlanadi. Badiiy asarning uzoq umr ko'rishi olim ta'kidlaganidek, "uslubning quvvatidan"dir. Abdurahmon Sa'diy uslubning sinflar bilan munosabati xususida to'xtalar ekan, ijtimoiy hayot har qanday janrdagi asar uslubiga, ijodkor uslubiga ta'sir ko'rsata olishini isbotlaydi. Demakki, "ijtimoiy turmushning shartlariga qarab, tilning va uning uslubining tabiati ham o'zgaradir". Uslub ochiqlik, ko'rinishlilik, hissiylik kabi bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar asarlarning yashab qolishi va tushunarli bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyotda shakl va mazmunning mutanosib bo'lishi muhim ahamiyatga ega, bu ikki hodisa bir-birini taqozo qiladi. Abdurahmon Sa'diy shoirlar ko'p bo'lsa-da, ularning aksariyati yangi mazmun yoki g'oya tug'dirmasligini, aksincha, ular ham avvaldan mavjud mavzularni qalamga olishlarini ta'kidlab, shoirlarning bir-biridan farqli jihatlari sifatida mavjud mavzularga yangicha shakl berishlari, yangicha uslubda ijod qilishlarini ko'rsatadi.

Abdurahmon Sa'diy uslubning ochiqligi barobarida so'zlarning sofligiga ham alohida e'tibor qaratish kerakligini uqtiradi. Chetdan olingan so'zlarning ishlatilishi badiiy matn mohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini namunalar asosida isbotlashga harakat qiladi. "Ajnabiylik yolg'iz-yolg'iz so'zlar olishdag'ina emasdir, bu hol jumlar tuzishda ham bo'ladir. Bir til uchun eng qo'rqinchlisi ham shudir. Masalan, ilgari zamonda Lutfiy, Husayn Boyqaro, Navoiy kabilar Eron va arablarning yolg'iz so'zlarining ta'siri ostidag'ina qolmasdan, jumla tuzishda ham Eronning qattig' ta'sirlari ostida yengildilar. Turkiy tilda forsiy tarkiblar yasadilar. Forsiy tili ruhida ibora va jumlar tuzdilar. Umarxon Amiriy ham shul yo'ldan ketdi. Kamiy, Almaiy va Furqatlarda ham shu holni ko'ramiz. Mashrab ham mundan qutula olmag'an. Hatto, Avloniyda ham bu ta'sir bordir". Olim Navoiy, Elbek, Cho'lpon, Botu ijodidan namunalar keltirgan holda badiiy matn ichidagi ajnabiy so'zning mohiyati va ohangi she'r matniga mos tushmaganini izohlaydi.

Abdurahmon Sa'diy uslubni buzuvchi xususiyatlardan biri sifatida matndagi so'zlarni bitimdosh shaklida (omonim so'z nazarda tutilgan) keltirishini ko'rsatadi. Olimning fikriga ko'ra "yozishda, aytilishda bir-birisiga o'xshag'an iki so'zni bitimdosh qilib keltirish ham uslubning ochiqlig'in buzadir". Bitimdosh so'zlar tuyuq janriga asos bo'lib, Abdurahmon Sa'diy bu janrga oid uch tuyuq (Lutfiy, Navoiy, Bobur)ni tahlilga tortadi. Misralardagi omonim so'zlarning ma'nolarini izohlaydi.

Milliy she'r tizimiga oid ilmiy-nazariy qarashlar

Darslikning ayni bobida "So'z uslubi" sarlavhasi ostida sochma va tizma uslubni bir-biridan farqlash qonuniyatlari keltirilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy matnlar keltirilgan bo'lib, olim dastlab sochma uslubni tushuntiradi va "Shajarayi turk" asaridan parchalar keltiradi. Tizmani izohlashda xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi she'r tizmalaridagi 4, 5, 7, 8, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 hijoli vaznlarning amaliy natijalarini ko'rsatuvchi she'riy parchalarni taqdim qiladi, hijo imkoniyatlari va turoqlanishini "rittata" usuli asosida tushuntiradi. Fitratning "chirmanda" usuli Abdurahmon Sa'diyda "rittata" usuli shaklida keltiriladi. Olim milliy she'r tizimi xususida to'xtalar ekan, she'rdagi hijo (bo'g'in) miqdori va ohangdorligi shoir tomonidan alohida e'tibor bilan sanab o'tirilmaligi, bu holat quloq ko'nikmasi va shoirning mahorati asosida yuzaga chiqishini alohida ta'kidlaydi. Abdurahmon Sa'diy milliy she'r tizimi – hijo vazni va barmoq vazni nomi bilan atalishini ma'lum qilar ekan, har misrasi 4 va 16 hijolardan tarkib topuvchi baytlarni o'zi taqdim etgan "rittata" usuli asosida tushuntiradi. Masalan,

Biz yosh yurak,

O'tli jonlar...

Qaynar ko'krak,

Tinmay shovlar... (Shokir Sulaymon) [Sa'diy, 59].

Misrasi 4 bo'g'in (hijo)ga ajraluvchi ushbu misralar "rittatita" motivi va quloq ohangiga mos ekanligi ta'kidlanib, misralardagi turoqlar ham ajratib ko'rsatiladi.

Biz yosh yurak,

Rit-ta / ti-ta

Olim tomonidan tizmaning "bo'linmasi", ya'ni turoq ajratilmasi 2+2 shakliga *rit-ta/tita* usulida taqsimlanadi. Olim ishlatgan usul atamasi – *rittatita* so'zi bo'g'inning sifatini emas (*cho'ziq, qisqaligi, ochiq, yopiqligi*), shunchaki misraning 4 bo'g'indan

iboratligini ko'rsatish uchun tanlangan, xolos. Masalan,

Dardim so'narmi,

Yoshim kebarmi,

Qurboni bo'lsam,

Menga qararmi? [Sa'diy, 59], misralari 5 hijoli tizimda yozilgan bo'lib, Abdurahmon Sa'diy misralarni rit-ta / titata shaklida turoqlarga ajratgan holda taqdim qiladi.

Haqorat dilni og'ritmas, tubanlik mangi ketmasmi?

Kishanlar parchalanmasmi, qilichlar endi sinmasmi?

[Sa'diy, 60].

Cho'lpon ushbu bayti *rit-ta titta* usuli 4 marotaba takrorlanishi asoslanishini misralar 4 turoqlanishga ega ekanligini "misra bo'linmasi" shaklida keltiradi:

Haqorat dil/ ni og'ritmas, / tubanlik ma/ngi ketmasmi?

Rit-ta tit-ta / rit-ta tit-ta/ rit-ta tit-ta/ rit-ta tit-ta

Kishanlar par/chalanmasmi, / qilichlar en/ di sinmasmi?

Rit-ta tit-ta / rit-ta tit-ta/ rit-ta tit-ta/ rit-ta tit-ta [Sa'diy, 60].

Abdurahmon Sa'diy o'zbek milliy tizimga oid 4, 5, 7, 8, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 hijoli misralarni tahlil qilar ekan, ularning har birini vazn nomi ostida keltiradi. Vaznlar tahliliga oid munosabatlarini keltirish asnosida davr she'riyatiga xos ilmiy-nazariy qarashlarini ham taqdim qiladi. Xususan, "hozirg'i yosh o'zbek shoirlarida esa eng ko'b qo'llanilgan vazn hozirg'acha 11 va 12 hijoli vaznlar" ekanligini ta'kidlagan holda bu vaznlarning ham qo'llanish o'rinlariga ko'ra ikki turi mavjudligini ma'lum qiladi.

Bugungi kun adabiyotshunosligi va adabiyot nazariyasiga oid darsliklarda barmoq vaznining sodda va qo'shma vazn kabi turlarga ajratilishiga oid ilk amaliy jarayonlar aynan XX asr boshlari shoirlari ijodida ko'zga tashlanishi bir she'r tizimida 11 va 12 hijoli vaznning aralash holda (*qo'shma vazn*) va bir she'rning boshdan-oyoq 11 yoki 12 hijoli vaznda(*sodda vazn*) kelishi bilan bog'liq nazariy masalalar darslikda alohida ta'kidlanadi. Olim milliy she'r tizimi va turlari xususida to'xtalar ekan, muhim qonuniyatga e'tibor qaratadi: "vaznlar tillarning xususiyatiga qarab bo'l"shini, tilning xususiyati adabiy jarayonga katta ta'sir ko'rsatishini barmoq va aruz vazni misolida isbotlab beradi.

Darslikda aruz vazni va uning turkiy tildagi imkoniyatlari xususida ham qisqacha to'xtalangan, turkiy tildagi 11, 13, 15 hijoli vaznlar bilan qiyoslanadi. Olim tomonidan madd vazni - aruz vaznining turkiy tilga o'zlashishining asosiy sababi turkiy tildagi arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarning miqdori ko'pligi

bilan izohlanadi, butunlay aruz vaznida ijod qilganini ta'kidlaydi. Olimning bu fikrlari Abdurauf Fitratning aruz vazniga oid qarashlari bilan hamohang ekanligi ko'zga tashlanadi. Xususan, Abdurauf Fitrat ham dastlab "aruzning bizning tilga yaramag'anlig'i" borasida aruz she'r tizimi va uning sun'iy sxolastik qoidalari, "faulunchilik", "zihofot"chilik masalasida fikrlari ijobiy bo'lmagan. Keyinchalik "Aruz risolasi"da fikrlarini o'zgartirgan [Fitrat, 14]. Abdurahmon Sa'diy ham "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligida aruz she'riy tizimi va uning qonuniyatlarini barmoq she'r tizimiga qiyoslash orqali vaznning barmoq vaznidagi qonuniyatlarga tushmasligini ta'kidlaydi.

Qofiya nazariyasiga oid tahlillar

Abdurahmon Sa'diy qofiyani bitim atamasi ostida keltiradi, bitimni tizmaning asosiy shartlaridan biri sifatida baholaydi. Shu asosda g'azal, ruboiy, to'rtlikning o'ziga xos qofiyalanish tizimi barobarida ohang, vazn va bitim birligini bir butunlikda taqdim qiladi. Olim "bitimsiz vazn ohangsiz bir vazn" ekanligini ta'kidlab, bitimdosh so'zlarning to'laqonli ohangdosh bo'lishi she'rning muvaffaqiyatini ta'minlashini isbotlash maqsadi bilan G'ulom Zafariyning "Vannaychaxon" she'ridagi "*yangratar*" bilan "*intilar*" so'zlaridagi bitimdoshlik ohangni buzishini ta'kidlaydi. Chunki bitimdosh sifatida keltirilgan so'zlar to'liq ohangdoshlik kasb etmagan. She'rdagi "*moralar*" bilan "*o'ynatar*" bitimdosh so'zlari ham aynan qofiyadosh emasligini ta'kidlab, bu kabi bitimdoshlik she'rdagi umumohangdoshlikni buzishini ta'kidlaydi. Demakki, olim misralardagi so'zlarning asl qofiya tomiridan bo'lishini asosiy xususiyatlardan biri sifatida keltiradi.

"Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining uchinchi bobi omma adabiyoti – xalq og'zaki ijodi, janrlari, obrazlar tizimiga bag'ishlangan. Abdurahmon Sa'diy xalq adabiyotini "og'iz adabiyoti" deb ataydi, dastlab omma adabiyoti va yozma adabiyotning farqli jihatlarini 8 qism ostida ko'rsatib o'tadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, olim garchi 8 qism asosida omma adabiyoti va yozma adabiyotning farqli jihatlarini ko'rsatsa-da, ulardagi eng asosiy tafovutni g'oyasi, ruhida deb belgilaydi.

Darslikning to'rtinchi bobi "Kishilik ijodi va uning turlari" deb nomlanib, olim dastlab badiiy va ilmiy ijod tushunchalarini qiyoslaydi. Fikrni yetkazish yo'llari: to'g'ridan to'g'ri yoki turli tasvirlar vositasida kabi masalalarga to'xtaladi. San'atning fan sifatida turli sohalarga ta'siri, she'r va nasrning san'atga munosabati,

san'atning ijtimoiyat bilan bog'liqligi kabi turli jihatlar batafsil kichik sarlavhalar ostida izohlanadi. Olim ma'lumotlarni taqdim etishda o'ziga xos uslubdan foydalangan. Kichik sarlavhalarining aksariyati savol shaklida berilgan va savolga javob izlangan. Abdurahmon Sa'diy bu bobda san'atdagi adabiy oqimlar haqida juda keng va batafsil ma'lumotlarni taqdim qilganki: o'quvchi, talaba bu ma'lumotlar asosida adabiy oqimlar Sharq va G'arb adabiyotida turlicha hukm surganini namunalar asosida anglab olishi mumkin bo'ladi. Chunki Abdurahmon Sa'diy adabiy oqimlar va ularning paydo bo'lish tarixi, taraqqiyoti, tanazzuli va sabablarini birma-bir tushuntirgan. Ma'lum adabiy oqim vakillarining asarlari va ulardagi mohiyatni alohida izohlagan. Bir shoir faqat bir adabiy oqim vakili emas, uning asarlari mohiyatidan kelib chiqqan holda turli oqim namunalari bo'lishi mumkinligini asoslab bergan. Klassitsizm, fikrchilik (ratsionalizm), sentimentalizm, romantizm, simvolizm, modernizm, futurizm, ijtimoiyotchilik, turkumlanish va boshqa oqimlar va ularning Sharq va G'arbdagi vakillari, asarlari tahlilga tortilgan.

"Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligini to'rtinchi bobida she'riy ijodlar turlarga ajratiladi, olim his-tuyg'ularga yo'g'rilgan she'rni yurak she'rlari deb nomlab, yurakchilik she'rlarini bir qancha turlarga ajratgan holda taqdim qiladi: diniy yurakchilik, harbiy-vataniy yurakchilik, inqilobiy she'rlar, qasida-madhiya, sevgi yurakchiligi – muhabbat she'rlari, qayg'u, motam she'rlari, hajviy yurak she'rlari kabi turlar asosida ularning o'ziga xos jihatlarini namunalar asosida izohlaydi. Olim nasrni ko'chirik atamasi ostida keltiradi. Ko'chirikni yurakchilik va tomoshalik (dramaturgiya) bilan qiyoslaydi, uslub va shakldagi farqliklarni ko'rsatadi.

Abdurahmon Sa'diy darslikning oltinchi bobida shoirga kerak bo'ladigan xususiyatlar haqida ma'lumot beradi. Ilhom, nafosat, dohiylik masalalari xususida ilmiy qarashlarni taqdim qiladi. Bu bobda olim adabiy tanqid va munaqqidning adabiyot olamidagi mavqeyi borasida kerakli fikr-mulohazalarni keltiradiki, bu fikrlar nafaqat XX asr boshlari, balki bugungi kun tanqidchiligi va munaqqidlariga qo'yiladigan talablar o'zgarmaganidan dalolat beradi.

Darslikning yettinchi bobida nasriy asarlar va ularning turli janrlari: sayohatnoma, xotirotlar, memuar asarlar, adabiy nutqlar, tarjimayi hol, yodnoma, tabiatlama (xarakteristika), qaydnoma, o'zimlik (avtobiografiya) kabilar haqida ma'lumotlar

keltiriladiki, bu ma'lumotlarda janrlarning tarixiy ildizlari va XX asr boshlarida paydo bo'lgan nasriy janrlar va ularning namunalari batafsil tahlil qilinadi. Olim bu bobda darslik yaratish mas'uliyati va qonuniyatlari xususida ham to'xtaladi, tuziladigan darsliklarning nima yoki kim uchun mo'ljallanishi asos sifatida ko'rsatiladi, talablari keltiriladi.

Xulosa

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligi garchi maktab o'quvchilari uchun tuzilgan darslik sifatida ko'rsatilgan bo'lsa-da, aslida bu kitob universitet talabalari uchun mo'ljallangan darslik talablariga javob beradi. Abdurahmon Sa'diyning o'zi ham asarning kirish qismida ko'p bora "talabalar" so'zini ishlatgan. Qolaversa, adabiyot nazariyasiga oid juda keng va batafsil keltirilgan ilmiy-nazariy ma'lumotlar, xulosalar universitet talabalari imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda taqdim qilingan, bu ma'lumotlar yirik mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlari va ma'ruzalari asosida tanlangan. Darslikda berilgan topshiriqlar ham amaliy mashg'ulot uchun mo'ljallangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" kitobi adabiyot nazariyasiga oid dastlabki va shu bilan birgalikda, mukammal qo'llanma bo'lib, darslikda adabiyot nazariyasiga oid barcha ilmiy-nazariy masalalar yetarlicha o'rganilgan.

Adabiyotlar

- Fitrat, Abdurauf. 1996. *Adabiyot qoidalari*. Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. Toshkent.
- Болтабоев, Х. 1996. *XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фанлари доктори...* дисс. Тошкент.
- Hamroyeva, O. 2023. *Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari*. Monografiya. Toshkent.
- Hamroyeva, O. 2024. "Adabiyot nazariyasiga oid ilk darslik". *O'zbek tili va adabiyoti* 4. Toshkent.
- Sa'diy, Abdurahmon. 2025. *Amaliy ham nazariy adabiyot darslari*. Nashrga tayyorlovchi O. Hamroyeva. Toshkent.
- Sa'diy, Abdurahmon. 1932. *Адабиёт дарслари учун ёрдамчи материаллар*. П. Шамсиев билан ҳаммуаллифликда. Тошкент.
- Мўминова, Н. А. 2002. *Абдурахмон Саъдийнинг адабиётшунослик мероси*. Филология фанлари номзоди диссертацияси. Тошкент.

The Structure of Abdurahmon Sa'di's Textbook "Practical and Theoretical Literature Lessons"

Orzigul Hamroeva¹

Abstract

The renewal, development and progress of literature are the basis for the formation of literary rules and theories. The beginning of the 20th century experienced a literary impact in all respects: fiction, literary types and genres, their poetic characteristics were renewed, and on this basis, the need arose to develop their theoretical rules in literary theory. Classical traditions: poetic analysis of aruz, rhyme changed depending on the possibilities of new poetic forms such as "barmoq weight", white verse, "sochma" and "mansura". Traditional themes, images, and the tasks assigned to them also changed dramatically. Literature has always been a social phenomenon. It reflects the feelings of the creator depending on the socio-economic and spiritual situation in society. For this reason, the principle of determining the literary environment of the era based on the essence of the creator's works and the system of images has been justified to this day.

The article discusses the structural structure of the textbook.

Key words: *collection, textbook, literary studies, literary theory, poetry, prose, drama.*

References

- Fitrat, Abdurauf. 1996. *Adabiyot qoidalari*. Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. Toshkent.
- Boltaboyev, H. 1996. *XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi*: Filol. fanlari doktori... diss. Toshkent.
- Hamroyeva, O. 2023. *Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari*. Monografiya. Toshkent.
- Hamroyeva, O. 2024. "Adabiyot nazariyasiga oid ilk darslik". *O'zbek tili va adabiyoti* 4. Toshkent.

¹ Orzigul J. Hamroeva – Doctor of Philological Sciences, Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-pochta: hamroyeva@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-3904-9712

For citation: Hamroeva, O. J. 2024. "The structure of Abdurahmon Sa'di's textbook "Practical and Theoretical Literature Lessons". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 49 – 62.

- Sa'diy, Abdurahmon. 2025. *Amaliy ham nazariy adabiyot darslari*. Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva. Toshkent.
- Sa'diy, Abdurahmon. 1932. *Adabiyot darslari uchun yordamchi materiallar*. P.Shamsiev bilan hammualliflikda. Toshkent.
- Mo'minova, N. A. 2002. *Abdurahmon Sa'diyning adabiyotshunoslik merosi*. Filologiya fanlari nomzodi dissertasiyasi. Toshkent.